



O'QUVCHILARGA TA'SIR ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Berdiyorova Matluba Asliddinovna

Toshkent shahar Yashnabod tumani

69-maktab psixologi

Sotimboyev Muzaffar

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on

tumani 18-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola barcha ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi o'qituvchilar uchun foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini o'zaro barqarorlashtirishga va samimiy bo'lishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, dars intizomi, talab, konflikt, xulq-atvor, chetlashtirish, texnika, o'quvchi, jarima.

Ta'lim jarayoni shu qadar murakkab jarayonki, natijaga erishish uchun tomonlar o'rtasidagi munosabat muhim o'rin tutadi. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat o'zaro samimiy bo'lsa ko'zlangan maqsadga erishish jarayonida hech qanday to'siqlarga duch kelmay osongina erishiladi. Lekin maktablarda bir sinfda 30-35-nafar o'quvchilar mavjud ularning har biri bilan samimiy munosabat o'rnatish yosh va tajribasiz o'qituvchilarga birmuncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada biz shu muommoning psixologik yechimi sifatida bir nechta tavsiyalar ishlab chiqdik.

Barcha o'qituvchilar o'z faoliyatlarida o'quvchilarning dars intizomi bilan bog'liq bo'lgan muammolar, ya'ni o'quvchilarning ta'limga, bilim olishga nisbatan salbiy munosabatiga duch kelishadi. Ular o'quvchilarga ma'lum talablarni qo'yadilar va o'quvchilar bu talablarga so'zsiz amal qiladilar deb o'ylaydilar. O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarni “ko'chadagi qarama-qarshi harakatga” qiyoslash mumkin,



chunki o‘quvchining o‘qituvchiga munosabati konfliktli va muammoli xulq-atvor shaklida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik ta’sir usullari.

1. E’tiborni kamaytirish:

- ko‘p hollarda bolaning namoyishkorona xulq-atvorini to‘xtatishning eng samarali usuli – unga ahamiyat bermaslikdir;
- ko‘zlar orqali aloqa o‘rnatish. O‘quvchiga razm solib qarab turing-ko‘z qarashlaringiz orqali o‘quvchi uning xatti-harakatidan norozi bo‘layotganingizni tushunadi;
- hech qanday qarashlarsiz va so‘zlarsiz uning yoniga kelib turing. Bolalar nimanidir noto‘g‘ri qilayotganlarini tushunadilar va ularni oldiga yaqinlashishingiz zahotiyqq nojo‘ya harakatlarini to‘xtatadilar;
- dars davomida intizomni buzmoqchi bo‘lgan bolaning ismini dars mavzusiga bog‘lab aytib o‘ting. U tinchlanish kerakligini tushunadi;
- yozma tarzda ogohlantiring. Shunchaki bolaning oldiga “iltimos, shu ishingni qilmagin” degan mazmundagi yozuvni qo‘yib keting. Bolaga bu qanday ta’sir qilganini kuzating;
- o‘z noroziligingizni to‘g‘ri izhor eting.

Ba’zida “hoziroq bas qiling!” deb baqirgizingiz keladi. Lekin buni boshqa tarzda aytish ham mumkin: “Nigora, men darsni tushuntirayotganimda seni gaplashib o‘tirishing mening xayolimni chalg‘itadi, iltimos, gaplashmay o‘tirgin”.

2. Dars davomida o‘quvchilarga birmuncha vaqt xohlagan ishlarini qilishga ruxsat berish (“taqiqlangan meva doim shirin”):

- nojo‘ya harakatlar (o‘tirishni xohlamasalar turaversinlar, bir-birlari bilan gaplashaversinlar) va bema’nigarchilikka ma’lum vaqt ruxsat bering;
- “hamma narsa mumkin” usulini qo‘llang. Bu usul shundan iboratki, o‘quvchilar intizomni faqat avvaldan kelishib olingan hajmda buzishlari mumkin.

3. O‘quvchilarning yomon xulq-atvorini ular kutmagan tarzda to‘satdan to‘xtatish:

- kulgi va yumordan foydalaning;
- past ohangda gapirishni boshlang.



Ko‘p o‘quvchilar “Maktabda siz uchun eng yoqmagan narsa nima?” deb savol berilganda “Baqirib va o‘dag‘aylab gapiradigan o‘qituvchilar” deb javob beradilar.

Qachonki o‘qituvchilar sekin gapirsalar o‘quvchilar ham shunga javoban qo‘pollik qilmaydilar.

- darsni birmuncha vaqtga to‘xtatib turing: “Avval tinchlanib olinglar va qachon darsni davom ettirish mumkinligini aytasizlar” deb, sinfga murojaat qilish mumkin. O‘qituvchining bunday yengil bosimi tezda ta’sir etadi.

4. O‘quvchilarni chalg‘itish:

- “Sen bu savolga qanday javob bergan bo‘larding?”, “Sening fikring qanday?” kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri savollar bolani “yomon” xulq-atvordan chalg‘itadi;
- unga biror bir vazifani (daftarlarni yig‘ib olish, bo‘r olib kelish, sinf jurnalini olib kelish va boshq.) yuklating;
- o‘quvchilarning faoliyatini o‘zgartiring (har biriga alohida topshiriq bering).

5. Sinfning diqqatini intizomga rioya qilayotganlarga qaratish:

- sizni topshirig‘ingizni bajargan o‘quvchilarga minnatdorchilik bildiring;
- ularni maqtang.

6. O‘quvchilarning joyini o‘zgartirish:.

- ularni boshqa joyga o‘tkazsangiz “tomoshabinlardan” mahrum etasiz va ular tinchlanadilar.

Agar bola qasddan yoki boshqalarning ustidan hukmronlik qilish xulq-atvorini qo‘llasa quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Nizo kelib chiqmasligi uchun diplomatik yo‘l tutish.

2. O‘quvchining nimaga qodir ekanligini tan olish.

O‘quvchiga qanchalik ko‘p bosim o‘tkazsangiz, u shunchalik qarshilik ko‘rsatadi “Sen topshiriqni bajarmasligingni men tushundim” degan mazmunda murojaat qilsangiz o‘quvchi buni buyruq ham, nasihat ham emas deb qabul qiladi.

Darsni davom ettirish mumkin va aksariyat hollarda o‘quvchi hech qanday e’tirozsiz boshqa o‘quvchilarga qo‘shilishi mumkin.



3. Agar yuzaga kelgan nizoli vaziyatni muhokama qilmoqchi bo'lsangiz buni dars vaqtida emas, balki tanaffus vaqtida bajarish maqsadga muvofiq.

Chunki atrofdagilarning guvohligi qarama-qarshilikni yanada kuchaytiradi. “Tomoshabinlarsiz” o'quvchi o'zgaradi.

4. Yuzaga kelgan vaziyatning muhokamasini keyinroqqa qoldiring:

“Men hozir buni muhokama qilmoqchi emasman”, “Balki, sen haqdirsan, kel bu haqida keyin gaplashamiz”.

5. Muhokama uchun maxsus vaqt belgilash.

“Sen bilan buni muhokama qilishga roziman. Oltinchi darsdan so'ng vaqtning bo'ladimi?”. Va yana xotirjam darsni davom ettirish mumkin.

6. O'quvchilarga topshiriq berish.

“Balki, sen haqdirsan... Lekin hozir darsni davom ettirsak”, “Men albatta bu haqida o'ylab ko'raman, hozir esa mavzuga qaytamiz...”.

O'quvchilarning nojo'ya so'zlari albatta qattiq ta'sir etadi, agar ularga javob bera olmasangiz mavzuni o'zgartiring, vaziyatni yumshating va o'quvchilarga topshiriq bering.

7. O'quvchilarni vaqtincha darsdan chetlashtirish texnikasini qo'llash.

Lekin shu yerda aytish kerak-ki, ularni koridorga yoki “manzilsiz” chiqarib yuborib bo'lmaydi. Sinf ichidagi boshqa partaga, boshqa sinfga, psixologning, direktorning xonasiga chiqarish mumkin. Bu eng so'nggi choralardir.

O'quvchiga taklif qiling: “Aziz, senga nima ko'proq ma'qul, darsda biz bilan o'tirishmi yoki direktorning xonasiga borishmi? Seni ko'rinishingdan direktorning xonasiga borishni tanlaganingni sezdim”. O'quvchi ikkitasidan birini tanlashi kerak. Agar shunday davom etsa darsdan chiqib ketishi mumkin.

8. Jarima belgilash.

Intizomni buzish oqibatsiz kechmasligini bolalar tushunishlari lozim. Intizom buzilishining har bir ko'rinishi uchun ma'lum jarimalar belgilanishi mumkin. Jarimalar nojo'ya harakatning yoki intizom buzishning xarakteriga mos bo'lishi, masalan, stolni sindirdingmi-tuzatib qo'y, xonani iflos qildingmi-tozala, haqorat qildingmi-uzr so'ra kabi mazmunda bo'lishi kerak.



O‘quvchilarga nisbatan bunday jarimalar kelgusida bu kabi xatti-harakatlarni takrorlamasligi uchun qo‘llaniladi. Jarimalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- o‘quvchini tanaffusga chiqishdan mahrum qilish, darsdan so‘ng birmuncha vaqtga olib qolish;
- darslikdan, jismoniy tarbiya darsida biron-bir sport inventaridan, kompyuterdan foydalanishdan mahrum qilish;
- zarar o‘rnini to‘ldirish;
- maktab ma’muriyati bilan uchrashish;
- ota-onalar bilan uchrashish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun dars mavzusini tushuntirishda noan’anaviy usullardan foydalanish samara beradi. Ular uchun maxsus topshiriqlar tayyorlash, juft bo‘lib ishlash, o‘quvchilarni bir-biriga biriktirish, “sen buni uddalaysan, qo‘lingdan keladi” degan so‘zlar bilan yutuqqa erishishi uchun sharoit yaratish, muvaffaqiyatga qozonishga ishonchni shakllantirish, xatolikka yo‘l qo‘yganda tushkunlikka tushmaslik, o‘quvchining kuchli tomonlarini ochib berish, o‘quvchiga individual yordam berish muhimdir. Bu esa zamonaviy o‘qituvchining kreativlik qobiliyati bilan bo‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Erkaboyeva “5000 savolga 5000 javob”
2. N. Imomova “Psixologik tavsiyalar” ma’ruzalar matni
3. @UzPsixologUz sayti. Internet manbalari